

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HAMDA XORIJ PROKURATURA ORGANLARINING O‘XSHASH HAMDA FARQLI JIHATLARI

Bahodirov Muhammad Umedjon o‘g‘li

Muallif: O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bitiruvchisi, mustaqil izlanuvchilikka nomzod.

Hozirgi kunga qadar turli davlatlarda turli shakldagi hamda vazifadagi prokuratura organlari shakllanib ulgurgan hamda isloh qilib borilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston kabi Sobiq Sovet Respublikalarida o‘xshash prokuratura tizimlari. Nisbatan oldinroq shakllangan g‘arb prokuratura organlarida esa sal boshqacharoq holatni ko‘zdan kechirishimiz mumkin. Bular haqida batafsil quyida to‘xtalib o‘tamiz.

Dastlab qo‘shni mamlakatlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Qozog‘iston prokuratura organlari milliy prokuratura organlarimizga o‘xshab ketadi. Ularning konstitutsiyaviy huquqining asosini tashkil qiluvchi qonun – O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonuni hamda Qozog‘iston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonunlariga nazar tashlasak.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasining asosiy yo‘nalishlari sifatida O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonunlig 4-moddasida quyidagilar ko‘rsatib o‘tilgan:

- vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;
- fuqaroning huquq hamda erkinliklarini ta‘minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish;
- O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida, vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarining harbiy tuzilmalarida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;
- tezkor-qidiruv faoliyatni, tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish hamda ularning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;
- jinoyatlar yuzasidan dastlabki tergov olib borish;
- sudlarda jinoyat ishlari ko‘rib chiqilayotganda davlat ayblovini quvvatlash, sudlarda fuqarolik ishlarini, ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni hamda



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

iqtisodiy nizolarni ko‘rishda ishtirok etish, qonunlarga zid bo‘lgan sud hujjatlariga protest keltirish;

- soliq intizomini mustahkamlashga, soliq, valyuta sohasidagi jinoyatlar va huquqbuzarliklarga qarshi kurashga, shuningdek davlatga yetkazilgan iqtisodiy zararni qoplashga qaratilgan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;
- ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta’sirning boshqa choralarini ijro etish chog‘ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;
- qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishida ishtirok etish.

Qozog‘iston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonunining 4-moddasida esa Konstitutsiya va qonunlar ustunligini ta’minlash, inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini himoya qilish, Qozog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari va Prezidenti farmonlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning aniq va bir xilda qo‘llanilishi ustidan oliy nazoratni amalga oshirish maqsadida. prokuratura davlat nomidan:

- Konstitutsiya, qonun hujjatlari va Respublika Prezidenti hujjatlarining buzilishini aniqlashi va ularni bartaraf etish choralarini ko‘rishi;
- tezkor-qidiruv faoliyati, surishtiruv va tergov, ma’muriy va ijro protsessining qonuniyligi ustidan nazoratni amalga oshirishi;
- suda davlat manfaatlarini ifodalashi;
- Respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga zid bo‘lgan qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlarga protest bildirishi;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va doirada jinoiy javobgarlikka tortishni amalga oshirishi kabilar belgilab o‘tilgan.¹

Umuman olganda qonunchilik ijrosi ustidan nazorat, sud jarayonlarida davlat ayblovini olib borish, harbiylashtirilgan tashkilot sifatida namoyon bo‘lish postsovet mamlakatlari prokuratura organlari uchun odatda xos narsadir.

Qozog‘iston hamda O‘zbekiston prokuraturalarining asosiy farqi tergov qismida hisoblanadi. Ya’ni Qozog‘istonda tergovchi alohida izlanishlar olib borganini, uning qonuniyligini prokuror nazorat qilib tekshirib boradi. Qozog‘iston prokuraturasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri tergov faoliyatiga ega emas, aksincha politsiya hamda tergov

¹ Qarang <http://law.gov.kz/client/#!/doc/104315/rus/19.06.1997>



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

boshqarmalarining faoliyatini tekshirib nazorat qilib boradi. Qozog‘iston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonunda ham tergovchilar haqida tayinli so‘z yuritilmagan.

O‘zbekiston Respublikasida esa prokuratura tizimlari tarkibida esa tergovchilar mavjud bo‘lib, prokuratura zimmasiga olgan jinoyat ishini tergov qilish faoliyatini olib boradi.

Shuningdek, Qozog‘iston Respublikasi prokuratura organlarining ijtimoiy va moddiy himoyasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonunning 53-moddasida quyidagilar ko‘rsatiladi:

- Prokuratura organlari xodimlarining mehnatiga haq to‘lash rasmiy ish haqi, sinf unvoni uchun qo‘shimcha haq va qisqartirilishi mumkin bo‘lmagan ish staji uchun nafaqa, shuningdek, mukofotlar va boshqa nafaqalardan iborat bo‘lishi;
- Prokuratura organlari xodimlariga o‘ttiz kalendar kun miqdorida yillik ta‘til berilishi;
- Prokuratura organlari xodimlari xizmat uy-joy fondidan turar joy maydoni berishda birinchi navbatdagi huquqdan foydalanishlari;
- Prokuratura organlarida o‘n kalendar yildan ortiq xizmatda bo‘lgan xodimlarining doimiy yashash uchun egallab turgan xizmat binolari ko‘rsatilgan xodimlarning iltimosiga binoan ularga va ularning oila a‘zolariga ijara shartnomalari bo‘yicha berilishi yoki shaxsiy mulkka sifatida sotib olinishi;
- Prokuratura organlarining xodimlari va pensionerlariga boshqa turar-joy binolari bermasdan turib, rasmiy turar joydan chiqarilishi mumkin emasligi;
- Prokuratura xodimi xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida vafot etgan taqdirda, marhumning oilasi u vafot etgan kundan e‘tiboran bir yildan kechiktirmay davlat uy-joy fondidan qonun hujjatlarida belgilangan shartlar va tartibda turar joy maydoni olishga haqli ekanligi.

O‘zbekiston Respublikasi “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonunning 50-moddasida prokuratura organlari xodimlarining moddiy va ijtimoiy ta‘minoti to‘g‘risida quyidagilar keltirib o‘tilgan.

- Prokuratura organlari xodimlarining ish haqi mansab maoshidan, darajali unvonlar (harbiy unvonlar), ko‘p yillik xizmat uchun to‘lanadigan ustama haqlardan hamda qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa to‘lovlardan iborat bo‘lishi;



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

- Darajali unvonlarga (harbiy unvonlarga) ega bo'lgan prokuratura organlarining xodimlari belgilangan me'yorlar bo'yicha bepul xizmat kiyimi bilan ta'minlanishi;

- Prokuratura organlari xodimlariga davomiyligi o'ttiz kalendar kundan iborat haq to'lanadigan yillik ta'til berilishi, o'n yildan ortiq ish stajiga ega bo'lgan prokuratura organlari xodimlariga davomiyligi besh kalendar kun, o'n besh yildan ortiq ish stajiga ega bo'lganlarga davomiyligi o'n kalendar kun, yigirma yildan ortiq ish stajiga ega bo'lganlarga esa davomiyligi o'n besh kalendar kun qo'shimcha ta'til berilishi.

Shuningdek, ushbu qonunning 51-moddasida prokuratura organlari xodimlarini hamda ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoyalash choralari ham sanab o'tilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, umuman olganda Yaponiya, Shvetsiya hamda Germaniya prokuraturalari hamda milliy prokuraturamiz o'xshashlik tomoni, ikkala tomonda ham sud jarayonlarida davlat ayblovini amalga oshirilishidir.

Asosiy farqlaridan biri ham shu bo'lib, jumladan milliy prokuraturamiz nafaqat sudda davlat ayblovini qo'llash yoki tergov, balki harbiylashtirilganligida ham bu farqni ko'rishimiz mumkin.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, postsovet davlatlarida prokuratura organlarining harbiylashtirilganligi, maxsus harbiy unvon hamda darajalarning berilishi, maxsus xizmat kiyimlarida namoyon bo'ladi.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, turli davlatlarda prokuratura organlari turli andozalar asosida shakllangan. G'arbiy Yevropa mamlakatlari prokuratura organlari asosan sud jarayonida davlat ayblovini amalga oshirish, tergov organlari olib borgan izlanish natijalari, dalillarni tekshirish, ularni sudga oshirish kabi vazifalarni bajaradi. Ularning vazifasi shu bilan deyarli cheklanadi. Ammo milliy prokuratura tizimlarimizda esa prokuratura organlari qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqaro va shaxslar huquq hamda erkinliklarini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish, profilaktika kabi turli vazifalarni bajarishi qonunchiligimizda belgilangan. Yaqin qo'shni davlatlarimiz, shuningdek aynan postsovet mamlakatlaridagi prokuratura organlari bir xil andoza asosida – sobiq sovet respublikasi prokuratura organlari asosida shakllanganini ko'rishimiz mumkin. Bu umumiyliklar, harbiylashtirilgan tizimda, prokuratura organlarining mamlakat hayotiga tutayotgan o'rnida hamda vazifalarida namoyon bo'ladi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Prokuratura to‘g‘risida”gi 29-avgust 2001-yildagi 257-II-sonli qonuni;
2. Qozog‘iston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi 155-VII-sonli Konstitutsiyaviy qonuni;
3. Qirg‘iziston Respublikasining “Qirg‘iziston Respublikasi Prokuraturasi to‘g‘risida”gi 114-sonli Konstitutsiyaviy qonuni;
4. O.M.Madaliev “PROKUROR NAZORATI”. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. (Umumiy qism.) T.: «ILM ZIYO», 2012. – 398 b.;
5. B.X. Po‘latov. Prokuror nazorati. Darslik. –T.: 2008. 520 b.;
6. O.M. Madaliev Prokuror nazorati. Darslik. Umumiy qism. –T.: TDYI nashriyoti, 2009. 424 b.;
7. Mualliflar jamoasi. “Prokuror nazorati”. Darslik. T., TDYuU, 2019.-190 b.;
8. Maxbubov M. “O‘zbekistonda prokuratura organlarining tashkil etilishi va rivojlanishi”. – T., 1991.;
9. Ражабова М.А. “Ҳуқуқий давлатчилик сари”. - Т.: “Ўзбекистон”, 2000. - 64 б.

Internet resurslar

1. lex.uz;
2. norma.uz;
3. cyberleninka.ru;
4. www.legal-tools.org;
5. verejnazaloba.cz;
6. www.law.yale.edu;
7. secrets.tinkoff.ru;
8. aklagare.se;
9. government.se;
10. eucrim.eu;
11. worldjusticeproject.org;
12. japaneselawtranslation.go.jp;
13. law.gov.kz.

